

ISSN:2181-0427 ISSN:2181-1458

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**



2021 йил 6-сон



Бош муҳаррир: Наманган давлат университети ректори С.Т.Тургунов

Масъул муҳаррир: Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор М.Р.Қодирхонов

Масъул муҳаррир ўринбосари: Илмий тадқиқот ва илмий педагогик кадрлар тайёрлаш бўлими бошлиғи Р.Жалалов

ТАҲРИРҲАЙЪАТИ

Физика-математика фанлари: акад. С.Зайнобиддинов, акад. А.Аъзамов, ф-м.ф.д., доц. М.Тўхтасинов, ф-м.ф.д., проф. Б.Саматов, ф-м.ф.д., доц. Р.Хакимов, ф-м.ф.д. М.Рахматуллаев.

Кимё фанлари: акад. С.Рашидова, акад. А.Тўраев, акад. С.Нигматов, к.ф.д., проф. Ш.Абдуллаев, к.ф.д., проф. Т.Азизов.

Биология фанлари: акад. К.Тожибаев, акад. Р.Собиров, б.ф.д. доц. А.Баташов, б.ф.н.

Техника фанлари: - т.ф.д., проф. А.Умаров, т.ф.д., проф. С.Юнусов.

Қишлоқ хўжалиги фанлари: – г.ф.д., доц. Б.Камалов, к-х.ф.н., доц. А.Қазақов.

Тарих фанлари: – акад. А.Асқаров, с.ф.д., проф. Т.Файзуллаев, тар.ф.д, проф. А.Расулов, тар.ф.д., проф. У.Абдуллаев.

Иқтисодиёт фанлари: – и.ф.д., проф. Н.Махмудов, и.ф.д., проф. О.Одилов.

Фалсафа фанлари: – акад., Ж.Бозорбоев, ф.ф.д., проф. М.Исмоилов, ф.ф.н., О.Маматов, PhD Р.Замилова.

Филология фанлари: – акад. Н.Каримов, фил.ф.д., проф. С.Аширбоев, фил.ф.д., проф. Н.Улуқов, фил.ф.д., проф. Ҳ.Усманова, фил.ф.д., проф. Б.Тухлиев, фил.ф.н, доц. М.Сулаймонов.

География фанлари: - г.ф.д., доц. Б.Камалов, г.ф.д., проф. А.Нигматов.

Педагогика фанлари: - п.ф.д., проф. У.Иноятлов, п.ф.д., проф. Б.Ходжаев, п.ф.д., п.ф.д., проф. Н.Эркабоева, п.ф.д., проф. Ш.Хонкелдиев, PhD П.Лутфуллаев.

Тиббиёт фанлари: – б.ф.д. Ғ.Абдуллаев, тиб.ф.н., доц. С.Болтабоев.

Психология фанлари – п.ф.д., проф. З.Нишанова, п.ф.н., доц. М.Махсудова

Техник муҳаррирлар: Н.Юсупов, Г.Акмалжонова

Таҳририят манзили: Наманган шаҳри, Уйчи кўчаси, 316-уй.

Тел: (0369)227-01-44, 227-06-12 **Факс:** (0369)227-07-61 **e-mail:** ilmiy@inbox.uz

Ушбу журнал 2019 йилдан бошлаб Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация комиссияси Раёсати қарори билан физика-математика, кимё, биология, фалсафа, филология ва педагогика фанлари бўйича Олий аттестация комиссиясининг диссертациялар асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

“НамДУ илмий ахборотномаси–Научный вестник НамГУ” журнали Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигининг 17.05.2016 йилдаги 08-0075 рақамли гувоҳномаси ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги (АОКА) томонидан 2020 йил 29 август куни 1106-сонли гувоҳнома га биноан чоп этилади. “НамДУ Илмий Ахборотномаси” электрон нашр сифатида ҳалқаро стандарт туркум рақами (ISSN-2181-1458)га эга НамДУ Илмий-техникавий Кенгашининг 10.05.2021 йилдаги кенгайтирилган йиғилишида муҳокама қилиниб, илмий тўплам сифатида чоп этишга рухсат этилган (Баённома № 6). Мақолаларнинг илмий савияси ва келтирилган маълумотлар учун муаллифлар жавобгар ҳисобланади.

НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ-2021



SAYYID QOSIMIY ASARLARIDA BADIY SAN'ATLAR

Normurodov Oybek Berdimurod o'g'li

Guliston davlat universiteti

O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasida o'qituvchisi,

[Tel:\(99\)472 70 36](tel:(99)472 70 36) e-mail:normurodov13@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqola XV asrning birinchi yarmi temuriylar saroyida ijod qilgan Sayyid Qosimiy asarlarining badiiy masalasiga bag'ishlangan bo'lib, unda shoirning badiiy san'atlardan foydalanish mahorati tahlil qilingan. Ushbu masalaning hal qilinishi, birinchidan, tadqiq qilinayotgan asarlar mohiyatini yanada yaqqolroq ochilishini ta'minlasa, ikkinchidan, uning o'ziga xos tomonlarini yoritishga ham xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: badiiy san'atlar, mubolag'a, telmeh, tazod, sifatlash, devon, g'azal, pand-nasihat doston, ijodkor, badiiy tafakkur, "Gulshani roz".

ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОЕ ИСКУССТВО В РАБОТАХ САЙИД КАСИМИ

Нармурадов Айбек Бердимуратович

Гулистанский государственный университет,

Преподаватель кафедры "Узбекская литературоведение"

[Tel:\(99\)472 70 36](tel:(99)472 70 36) e-mail: normurodov13@mail.ru

Аннотация: Статья посвящена художественным вопросам произведений Сайида Касими, созданных при дворе Тимуридов в первой половине XV века, и анализируется мастерство поэта в искусстве. Решение этих проблем, во-первых, обеспечивает более четкое понимание сути изучаемых работ, а во-вторых, он также служит для выявления его особенностей.

Ключевые слова: искусства и ремесла, преувеличение, телмех, тазад, эпитет, деван, газель, дидактическая поэма, поэт, художественное мышление, "Гульшани роз".

ARTISTS IN THE WORKS OF SAYYID QASIMI

Gulistan State University,

The teacher of the chair of "O'zbek adabiyotshunosligi"

[Phone: \(99\)472 70 36](tel:(99)472 70 36) e-mail: normurodov13@mail.ru

Abstract: This article is devoted to the artistic issue of Sayyid Qasimi's works created in the Timurid court in the first half of the 15th century, and analyzes the poet's mastery of the arts. The solution to this problem is, firstly, to provide a clearer understanding of the essence of the work under study, and secondly, to shed light on its specific aspects.

Keywords: art, rhetoric, telmeh, tazod, adjective, devon, ghazal, admonition epic, creator, artistic thinking, "Gulshani roz".

Ma'lumki, temuriylar davri o'zbek adabiyoti namoyandalardan biri Sayyid Qosimiy adabiyotimiz tarixida didaktik ruhdagi dostonlar bitgan ijodkor sifatida ajralib turadi. Muallifning bugungi kunda fanga ma'lum asarlari janr nuqtayi nazardan faqat doston sifatida talqin etilgan bo'lishiga qaramay, ular tarkibidan boshqa janrlar ham o'rin olgan. Adibning "Gulshani roz" (Sirlar gulshani) dostonining har bir bobidan so'ng bittadan g'azal keltirilib,



ular o'zbek adabiyoti tarixida Qosimiydan bizgacha yetib kelgan g'azallarning yaxshi namunalari hisoblanadi. Asar o'n bobdan iborat va ana shu boblardan keyin jami o'nta g'azal keltirilgan. Qosimiyning g'azallari yuqori mahorat bilan yozilganligi adibning so'zlarni o'rni bilan qo'llashida, badiiy san'atlardan mukammal foydalanganligida yaqqol ko'rinadi.

Sharq poetikasi uchun uzoq asrlardan buyon ilmi adab uchligining biri, ya'ni ilmi badi' ijodkor mahoratini belgilovchi asosiy yo'nalishdandir. Adibning so'zning cheksiz imkoniyatlaridan qay darajada foydalana olishi ilmi badi'da yaqqol seziladi. Mana shu jarayonni Sayyid Qosimiyning yuqorida aytilgan g'azallari misolida tahlil qilaylik:

Har neki bor barchasi foniy bo'lur

Boqiy qolur dunyoda nomi karam.[1.114-b.]

(Mazmuni: Dunyoda nimaki bo'lsa, barchasi o'tkinchidir, ammo karam(sahovat)li insonning nomi mangu qoladi).

Adabiyotshunoslik ilmida **tazod**ning ikki turi: lafziy ya'ni so'z va ma'naviy tazod qayd etiladi. [2.33-b.] Shoir yuqorida lafziy tazod namunasi, ya'ni foniy o'tkinchi va boqiy mangu so'zlarini bir-biriga zid qo'llash orqali fikr qarama-qarshiligini yuzaga keltirgan. Yoki, tazod san'atining aynan yuqoridagi turini boshqa baytda kuzatish mumkin:

Hajri bilan o'tdi bu umri aziz,

Bo'lmadi bir lahza muyassar visol. [1.122-b.]

Baytda ma'shuqasidan ayrilgan, uning hajrida umri o'tgan oshiq kechinmalari qalamga olingan. Bunda tazod san'ati *hajr va visol* so'zlarida o'z aksini topgan.

Mumtoz adabiyotda **mubolag'a** yetakchi badiiy san'atlardan bo'lib, uning bir-biriga o'xshamaydigan ko'rinishlarini tez-tez takrorlanadi. Jumladan, Sayyid Qosimiyning quyidagi so'zlariga e'tibor qarataylik:

Qosimiykim, g'arqi mayi ishq edi,

Ko'z suyina g'usl etib bo'ldi pok. [1.120-b.]

(Mazmuni: Qosimiy ishq sharobiga cho'kdi va undan ko'z yoshiga yuvinish orqali pok bo'ldi).

Aqlan ishonish, tasavvur qilish mumkin-u, haqiqatda mavjud bo'lmaydigan mubolag'ali tasvir **ig'roq** deb ataladi. [3.187-b.] Qosimiy ham bu misrada mubolag'aning ig'roq ko'rinishidan o'rinli foydalana bilgan. Ko'z yoshi suvga o'xshashligini bilamiz hamda unga yuvinishni ham tasavvur qila olamiz, ammo mantiqan buning imkoni yo'q. Bunday nozik tasvir usullari ijodkor badiiy tafakkuri mahsuli bo'lib, u inson ichki olamining anglab bo'lmas qirralarini real olam bilan qiyoslash orqali ongda aniq tasavvur etishga xizmat qiladi.

Qosimiyning boshqa bir misrasida poetik mahoratning yangicha qirrasini kuzatish mumkin:

Bog'lasa himmat kamarini mo'ri lang,

Rustami doston bila aylar nabard.[1.117-b.]

(Mazmuni: Agar oqsoq chumoli mardlik, sahiylik belbog'ini bog'lasa, hatto Rustami dostondek kuchli inson bilan ham jang qila olish qudratiga ega bo'ladi).

Bir qarashda baytda oddiy ma'no bordek, chuqurroq tahlil qilinsa, bu yerda bir necha ma'nolar mujassamlashilganini ko'rish mumkin. Sharq klassik adabiyotida chumoli obrazi tez-tez qalamga olinadi. U jismonan ojiz, ammo sabr-toqat, mehnatsevarlik ramzi sifatida talqin qilinadi. Rustam esa mumtoz adabiyotda jasorat va botirlik, jismoniy quvvat, qahramonlik va mardlik timsolidir. Ana shu ikki obrazning bir-biriga zidlanishi baytda tazod san'atini hosil



qilgan. Baytdagi Rustam obrazi esa talmeh badiiy san'atiga misol bo'loladi. "Mo'ri lang" birikmasi sifatlash(epitet)i ham bu o'rinda ...tasvirlanayotgan hodisaning u yoki bu "xislati"ga kitobxonning diqqatini tortadi, unda hayajon uyg'otadi[4.206-b.] fikriga mos qo'llanilgan. "Bog'lasa himmat kamarin", "himmat kamari" chumolining Rustam bilan jang qilishi metaforalar uch o'rinda ishlatilib badiiylkning qiymmatini oshishiga xizmat qilgan. Rustami doston va chumolining jang qilishi inson aqliga sig'maydi, shu bois bu tasvir usulini mubolag'aning g'ulu naviga kiritish maqsadga muvofiq.

Talmeh badiiy san'ati kitobxonlardan chuqur bilim talab qiladi, chunki qahramon histuyg'ularini aniq tasavvur qilish uchun shoir ba'zan o'tmishdagi mashhur tarixiy shaxslar, voqealar, afsonalarga ishora qilib ularning nomini zikr qiladi. O'quvchi esa yuqoridagilarni asl mohiyatini bilmas ekan, muallif aytmoqchi bo'lgan fikrni tushuna olmaydi. Masalan, Muso alayhissalom zamondoshi Qorun biror baytda qalamga olinsa, u xasislik timsoli sifatida talqin qilinadi. Qorun ko'p boylikka ega bo'lgan. Ammo xasis va ochko'zligi uchun Yaratganning xohishiga ko'ra uni yer yutib ketadi. Demak, baytda qo'llanilgan Qorun obrazini bilish uchun u bilan bog'liq rivoyatdan xabardor bo'lish kerak.

Talmeh san'atining takrorlanmas namunalari Qosimiy g'azallarida talay. Misol uchun quyidagi baytni olaylik:

Hashr kuni vaqti savol-u javob,

Marhamati bo'lsa, himoyat na g'am.[1.115-b.]

Misralarda bir qarashda talmih yo'qdek ko'rinsa ham, ammo mazmun talmihning borligini dalillaydi. Baytda "Hashr kuni" birikmasi aynan talmihdir. Yuqorida aytilganidek o'quvchi "Hashr kuni" jumlasini bilsa, misra mazmunni aniq anglaydi, bilmasa, aksincha. Islom dinida qiyomatdan so'ng Alloh bandalarini qilgan amallariga qarab jannat yoki do'zaxga doxil qilishi aytiladi. Ana shu amallarining savol-javob qilinish kuni "Hashr kuni" deyiladi. Qosimiy bu yerda ayni shu voqeaga ishora qilish orqali aytmoqchi bo'lgan fikrini o'quvchiga bayon etgan.

Mumtoz adabiyotda keng istifoda qilinadigan talmehlardan yana biri Masih obrazi bilan bog'liq. Alloh tomonidan unga o'liklarni tiriltirish, har xil dardlarni tuzatish mo'jizalari berilganligi aytiladi. Iso Masih obrazini milliy adabiyotimizda ham tilga olish an'anasi mavjud. Yorning til, lab uzvlar bilan birga qo'llaniladigan Masih obraziga Sayyid Qosimiy ham murojaat qilgan:

Erni tabassumda netub jon berur,

Bo'lmasa og'zida Masiho dami.[1.116-b.]

(Mazmuni: Yorning nafasi Masih nafasidek bo'lmasa, u qanday qilib labi tabassum qilganida kishiga jon ato qilur). Baytda muallif talmih badiiy san'atining an'anaviy usulidan foydalanib, yorning labini Iso(a.s.)ning o'likni tiriltirish mo'jizasiga qiyoslagan.

Sayyid Qosimiy g'azallarida bir necha badiiy san'atlar ba'zan bir baytda jamlangan bo'ladi:

G'uncha kabi no'sh qilib xuni dil,

Orif ersang, ochma og'iz, urma dam![1.115-b.]

Birinchi misrada "g'uncha kabi" birikmasi tashbehni hosil qilgan. Bu san'at "Funun ul-balog'a"da "Tashbeh ul bo'lurkim, bir narsaga o'xshatulur", deya ta'riflanadi.[5.77-b.] Ikkinchi misrada "ochma og'iz", "urma dam" buyurish – amr, birovni xatti-harakatdan tiyish – nahy va "og'iz ochmoq, dam urmoq – gapirmoq, boshlamoq" iboralari – ta'bir san'atlarini yuzaga keltirgan.



Yoki, quyidagi baytda ham bir xil turdaagi badiiy san'atning bir bayt tarkibida kelishini kuzatish mumkin:

*G'uncha kabi qat-qat ichim qildi qon,
Gul yuzi-yu sunbuli zulfi g'ami.* [1.116-b.]

Oshiqning ichki olami chizilgan ushbu baytning birinchi misrasida "G'uncha kabi" birikmasi tashbehni yuzaga keltirgan. Atirgulning g'unchasi qavat-qavat shaklda bo'ladi. Shoir bu holatni ma'shuqaning visolida azoblanib yurgan oshiqning ko'nglidagi g'am-anduhlariga mengzagan. Ikkinchi misrada ham aynan shu san'at qo'llanilgan.

Yuqoridagilardan xulosa shuki, Sayyid Qosimiy ijodining o'zida xos jihatlari qatorida badiiy san'atlardan foydalanish mahorati ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shoirning bugungi kunga qadar devoni va u bilan bog'liq ma'lumotlar to'laqonli o'rganilmagan. Ijodkorning "Gulshani roz" dostonidan o'rin olgan g'azallar muallifning qalami charxlanganligini ko'rsatadi. Yuqorida tahlilga tortilgan namunalar Qosimiy badiiy olamining ba'zi jihatlari qaratildi va uning mahoratli ijodkor ekanligini ko'rsatdi. Adib g'azallarining atroflicha tadqiqi kelgusida o'z yechimini kutayotgan masalalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qosimiy Sayyid. Masnaviylar majmuasi. Gulshani roz. – T., Fan. 1992.
2. Rahmonov Vahob. She'r san'atlari. – T., Sharq. 2020.
3. Qur'onov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T., Akademnashr. 2013.
4. Boboyev T. She'r ilmi ta'limi. – T., O'qituvchi. 1996.
5. Shayx Ahmad Taroziy. Funun ul-balog'a. O'zbek tili va adabiyoti jurnali. 2002-yil 2-son.

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK-GRAMMATIK VA USLUBIY XUSUSIYATLARI

Saidova Nigorabonu Amanovna

Buxoro davlat universiteti

Xorijiy tillar fakulteti ingliz tilshunosligi kafedrasida magistranti

Tel: 91 447-77-75 e-mail: nigora.saidova.1992@mail.ru

Annotatsiya: Frazеologiya tilshunoslikning alohida sohasi bo'lib, ushbu maqolada biz frazeologik birliklarning semantik-grammatik va uslubiy xususiyatlarini tahlil va tadqiq qilamiz.

Kalit so'zlar: frazeologizm, frazeologiya, komponent, ekspressivlik, ibora, leksikologiya, izamorfizm, prefiksial va affeksial.

СЕМАНТИКО-ГРАММАТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ

Магистрант факультета иностранных языков

Саидова Нигорабону Амановна

Тел: 91 447-77-75 e-mail: nigora.saidova.1992@mail.ru



МУНДАРИЖА

ФИЗИКА-МАТЕМАТИКА ФАНЛАРИ

01.00.00

ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИЕ НАУКИ

PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES

1	Kvadratik va kubik stoxastik jarayonlar Boboqulova S.B	3
2	Учинчи тартибли сингуляр коэффицентли гиперболик типдаги тенглама учун қўйилган чегаравий масалани ечиш. Мелиқўзиева Д.М	6
3	Экспериментальное исследования поляризуемости и дипольного момента трансформаторной масли трм-3 Кучкаров Х.О, Абдуназаров А.А, Неъматжонов Ш.Р	13
4	Steam ta'limining afzalliklari Nurmatova M, M	19
5	Кучли электромагнит майдондаги p-n ўтиш дифференциал қаршилиги ва диффузион сиғимига деформация ва ёруғликнинг таъсири Гулямов Г, Дадамирзаев М. Г , Косимова М.О	23
6	Суперконденсаторлар учун полимер гидрогелларни физик-механик хоссаларини тадқиқ қилиш Шодманов Ж.А, Боймирзаев А	30
7	О равномерной сходимости случайных полей в $s(s)$ Акбаров М, Мирзакаримова Н.М	34
8	Физикадан нозизиқли таълим траекторияларини қуришнинг методик модели Имомов О.Э	37
9	Металларнинг сирти ва сиртига яқин соҳалари хоссаларини ионли бомбардировка таъсирида ўзгариши Элмуродов Р, У, Ниязов Ш,К, Саматов Ғ,Б, Абдуллаев А, Маърипов И. И,Файзуллаев А	42
10	Ikki o'lchamli materiallarda fermi energiya ossilyatsiyalariga kvantlovchi magnit maydonning ta'siri Mirzayev J.I	51



10.00.00

ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
PHILOLOGICAL SCIENCES

48	Ошибки в письменной работе студентов	
	Хамдам-зода Л	251
49	Sinxron tarjima san'atini egallash strategiyalari	
	Abdullayeva G. G	257
50	Индивидуальные вариации в овладении вторым языком	
	Бобокулова Г.Ш	263
51	Эртак ва унинг тарихига бир назар	
	Имяминова Ш.С.....	267
52	Comparative research of english and Uzbek toponyms	
	Ismatova N.M	270
53	Ingliz va o'zbek lingvomadaniyatida "Happiness" va "Baxt" kontseptining ifodalanishi	
	Jumayeva O.I	275
54	Теория множественного интеллекта и изучение языка	
	Каххорова Ш.Ш	279
55	Tetralogiyaning tadrijiy taraqqiyoti	
	Qo'ziliyeva G.N	283
56	Инновационные методы обучения английскому языку для специальных целей	
	Мирходжаева М.И	287
57	Oliy o'quv yurtlarida rusiyzabon talabalarga o'zbek tilini o'qitish muammolari	
	Normatova Sh.U	291
58	Abdulla Oripovning "Haj daftari"she'riy turkumi haqida	
	Fayzullayeva O.X	295
59	Feminist yozuvchilar asarlarida badiiy tasvir vositalarini qo'llanilishi xususida	
	Abdullayeva N	299
60	Yetuk o'zbek adibi Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" asari misolida tarixiy inversiya	
	Naimova A.M	303
61	Тилшуносликда матн талқини	
	Қозоқова Н.А	308
62	Обучение Английскому языку с помощью литературы	
	Курбонова Ш.Х	312
63	Frazeologiyani o'rganish va inson ruhiy holatini ifodalovchi frazeologik birliklarning chog'ishtirma tahlili	
	Saidova Z.X	316
64	Ўзбек тилида тарз ифода воситаларининг морфологик, синтактик, лексик ва услубий ифодаланиши	
	Абдуллаев А	320



65	Ona tili darslarida o`quv lug`atlaridan foydalanish samaradorligi Tursunova O.F	325
66	Aforizmlar lingvistik tadqiqot obyekti sifatida Akramov I.I	330
67	Насимий ва фурқат ижодида табиат тасвири Амонова З. Қ	335
68	Бахшининг бадий маҳорати Тилавов А	339
69	Инглиз ва ўзбек тилларида эвфемизмларнинг ўрганилиши ва лисоний хусусиятлари Рузиева Н.З	342
70	Мумтоз жанрда макон ва вақт категорияси (Алишер Навоий шеърлари мисолида) Йўлчиев Қ.В	347
71	Использование лингвистической терминологии при изучении сегментной фоностилистики имени существительного русского, Узбекского и Английского языков Гафуров Б.З	353
72	Biznes turizm terminlarining qiyosiy lingvo-semantik tahlili Gavharoy Isroiljon qizi	357
73	Абдулла Ориповнинг поэтик сўздан фойдаланиш маҳорати Хамдамов А.Н	365
74	Синтактик фигуралар таснифи Абдулаттоев М.Т	371
75	Sayyid Qosimiy asarlarida badiiy san'atlar Normurodov O.B	377
76	Frazeologik birliklarning semantik-grammatik va uslubiy xususiyatlari Saidova N. A	380
77	Специфика в изображении образа «кавказского пленника» в русской литературе Юлдашева О	386
78	Сўз” ва “Термин” концептларининг лингвистик таърифлари ҳамда уларнинг ўзаро муносабатлари Хамдамов Р.М	390
79	Ҳ.Худойбердиевнинг сўзларни кўчма маънода қўллаш маҳорати Юсупова Д.Ю	395
80	Intonatsiya va pauzaning uslubiy xususiyatlari Yadgarova Z.T	403